

HAYVONLARDAN OLINADIGAN DORIVOR MAHSULOTLAR , TIBBIYOTDA ILON ZAXRIDAN DORIVOR VOSITA SIFATIDA FOYDALANAISH

Azimov Shavkat Shuhratovich

*Ilmiy rahbar :Islom Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti
Muhandislik texnologiya fakulteti Biotexnologiya kafedrası mudiri,Biologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Mexribonova Sitara Azamat qizi

*Islom Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Muhandislik
texnologiya fakulteti Biotexnologiya kafedrası 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada hayvonlardan olinadigan, biologik faol moddalar ,fermentlar va boshqa dorivor mahsulotlar, ularni barcha tirik organizmlarda mavjud bo'lgan turli yosh vakillarida uchraydigan turli xil kasalliklarning oldini olish va davolash maqsadida fodalaniş, aholi salomatligini yanada mustahkamlash ,tabiiy dorivor hom-ashyo vositalari jumladan ilon zaxridan farmasevtik biotexnologiyada yangi dorivor maxsulotlar ishlab chiqarish haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *Ilon zahri, qimron,kobra, neyrotoksik, gemorogik, narkoz, tromboz elipsiya, viprosol surtmasi ,miozit, artrit, poliartrit, nevralsiya.*

KIRISH

Hayvonlar,hayvonlarning ayrim organlari va ulardan olingan yoki tayyorlangan maxsulotlarni odamlar qadimdan shifobaxsh vosita sifatida qo'llab kelganlar. Inson o`z kasalligini davolash, qiynab turgan og'riqni yoki yo'talni qoldirish, yaradan oqib turgan qonni to'xtatish va boshqa shunga o'xshash hollarda o'simliklar maxsulotlari, mineral birikmalar bilan bir qatorda hayvon maxsulotlaridan ham keng foydalangan bo'lishlari kerak. Shuning uchun qaysi mahsulot- o'simliklardan olinganmi yoki hayvonlardanmi, qaysi birinchi bo'lib dorivor vosita sifatida ishlatilganini aytish qiyindir. Faqat shuni qat'iy ta'kidlash mumkinki, har ikkala guruh vositalar ham eng kamida va juda keng miqyosda xalq tabobatida qo'llanilgan va qo'llanilmoqda.

Abu rayxon Beruniy o'zining mashxur asari " Kitob as saydana fit-tib" ning 442 bobdan 104 bobni Hayvonlar va ulardan olingan dorivor maxsulotlarga bag'ishlangan. "saydana"da keltirilgan dorivor vositalarning qariyb ¼ qismini hayvonlar va ulardan olingan mahsulotlar tashkil qiladi.(1)

Xozirgi vaqtda ham xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda hayvon va ularning mahsulotlaridan keng foydalaniladi. Ilmiy tibbiyotda ham shifokorlar hayvon organlaridan olinadigan bir qancha dorivor preparatlar, garmon, ferment preparatlari, organopreparatlar qondan ,siydikdan olinadigan va boshqa preparatlardan hozirda ham turli kasalliklarni davolashda samarali foydalanilmoqda.

Kelgusi hayvon maxsulotlaridan dorivor vosita sifatida foydalanish yanada ortishi kutilmoqda. Bunga dalil sifatida keying yillarda hayvonlardan birinchi galda suv hayvonlaridan, ayniqsa dengiz va okeanlarda yashovchi jonivorlardan ajratib olinayotgan turli biologik faol moddalarni keltirish mumkin. Shu yo'l bilan olingan biologik faol moddalardan bir qancha noyob, qimmatbaho, davolanishi qiyin bo'gan og'ir kasalliklarni davolovchi dorivor vositalar yaratildi, yaratilmoqda va tibbiyot amaliyotida samarali qo'llanilmoqda. Bu esa bundan kiyin ham shu sohani kengayishi hamda yangi samarali dorivor vositalar yaratilishidan dalolat beradi.

Mavzu taxlili. Xozirgi kunda farmakognozya fani o'zining dasturiga binoan ilonlardan olinadigan zahar, asal ari maxsulotlari va zulukni hamda mum, lanolin, kashalot yog'i – spermatset, baliq yog'i va boshqalarni o'rganib kelmoqda.

Ilon zaxri. Kobra- bu eng zaxarli ilonlar turidan bo'lib, tashqi ko'rinishi yirik chipor ilonga o'xshab ketadi. Kobra xindistonda keng tarqalgan o'tkir zaxarli ko'zoynakli ilonning kenja tipidan biridir. Lekin u bo'ynida ko'zoynak rasmi bo'lmasligi va boshqa belgilari bilan Hindiston ko'zoynakli ilonidan farq qiladi. Kobra zaxarli ilonlar ichida yiriklaridan biri hisoblanadi. Bo'yining uzunligi 1,8 m ga yetadi. Tanasining usti sariq, to'q jigarrang, qoramtir va hatto qora tusda bo'ladi. Ko'pincha tanasining 1/3 qismida serbar ko'ndalangiga ketgan qoramtir yo'llari bo'ladi.

Ilon zaxari biroz toblanuvchi sarg'ishroq, hidsiz yopishqoq suyuqlik bo'lib neytral yoki kislotali sharoitga ega. Zichligi 1.030- 1.046. Yangi olingan zahar va uning suvdagi eritmasi turg'un emas. Efir, xloroform, spirt, kuchli kislotalar va ishqorlarda kaliy permanganat, yod va ammoniygidroksid eritmalarida parchalanib o'zining zaxarli kuchini yo'qotadi. Ilonlar zaxari o'z kuchini gletserindagi eritma hoida muzlatib yoki bazan quritib saqlanganda uzoq vaqt saqlab qoladi.(2)

Kobra zaxari neyrotrop-neyrotoksik birinchi navbatda nafas yo'llari markazini, so'ngra markaziy nerv sistemasini ishdan chiqaradi. Kobra zaxari tarkibida oqsil (albuminlar va globulinlar), mineral tuzlar, fermentlar va boshqa moddalar bor. Bu zaxarlarning asosiy ta'sir etuvchi birikmalari bir xil zaxarli ta'sir ko'rsatuvchi neyrotoksin va gemmorrogin. Ilon zaxrini shisha idishlarni tishlatib, narkoz qilib yoki bezlarini ezib va boshqa usullar bilan yig'ib olinadi.

Ilon zaxridan ilon chaqqanda zaxarni kesadigan zardob ishlab chiqariladi. Tibbiyotda ilon zaxridan tayyorlangan preparatlar bod, artrit, turli og'riqlar, nevrалgiya, poliartrit, nafas qisishi, tromboz, tutqanoq, surunkali radikulit, miozit va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Xulosa. Yuqorida hayvon xom-ashyolaridan ajratib olinadigan biologik faol moddalar va ularning farmakologik xususiyatlari xaqida qisqacha to'xtalib o'tildi. Biologik faol moddalar inson organizmiga tushgandan so'ng o'zining dorivorlik xususiyatlarini namoyon qiladi va turli patologik jarayonlarni korrektsiya qilishda qo'l keadi. Bu borada tabiatning o'zi insonlarga ko'makchi hisoblanadi. Sababi, tabiatdagi mavjud o'simliklar va hayvonot dunyosi biologik faol moddalarning moddiy bazasi hisoblanadi. Jumladan, xayvonlardan ajratib olandigan biofaol moddalar yoki biofaol

qo'shimchalar turli kasallikni oldini olishda qo'llanilishini tibbiyot va farmakologiya tasdiqlagan.

Hayvonlarning turli sinf vakillari, sudralib yuruvchilar, suvda yashovchilar, tuyoqlilar, parrandalar va boshqa turlarining go'sht, yog'i, zaxri, ichki organlariva boshqa mahsulotlari inson organizmiga o'ziga xos spetsifik ta'sir qilish hususiyatiga ega. Masalan sudralib yuruvchilar sinfi vakili bo'lgan ilonlardan olinadigan zahar netrotoksik hususiyatga ega bo'lib yuqorida aytib o'tganimizdek juda ko'plab kasalliklarda qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, hayvonlardan ajratib olinadigan biofaol moddalar, biofaol qo'shimchalar va hom-ashyolarning dorivorlik xususiyatlari inson organizmini normal rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib farmasevtik biotexnologiyadagi o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haydarov R.V. Dori vositalarning ishlab chiqarish fanidan o'quv uslibiy majmua. Toshkent-2017.
2. Komilov X.M., Maxmudov A.A., «Biologik faol moddalar texnologiyasi» fanidan darslik. Toshkent 2010.
3. M.M. Mirolimov., H.Q.Abdullayeva / Farnasevtik texnologiya asoslari fanidan amaliy qo'llanma. Toshkent-2015.
4. Komilov X.M., Maxmudov A.A., To'xtaev F.X. « Biologik faol moddalar texnologiyasi» fanidan elektron darslik. Toshkent 2007.
5. Чуешов В.И., Ляпукова О.А. «Технология биологически активных веществ». Част Практикум. Изд. НФАУ "Золотие странитци".